

Mikroqarz Light 2 ajratishning umumiy shartlari to'g'risida Ommaviy oferta

Ushbu Ommaviy ofertada “Hamkorbank” ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank deb yuritiladi) tomonidan nomuayyan jismoniy shaxslarga/mijozlarga bank bo‘linmalari orqali mikroqarz Light 2 ajratish to‘g‘risidagi Shartnomaning (keyingi o‘rinlarda Shartnoma deb yuritiladi) umumiy shartlari keltirilgan. Shartnoma mikroqarz Light 2 ajratishning umumiy shartlarini tartibga soladi va belgilaydi. Shu bilan birga, ushbu shartnoma imzolanganidan va skoring tahlilining ijobiy natijasidan so‘ng, mijoz Mazkur Ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblangan mikroqarz Light 2 uchun maxsus shartlarni – mikroqarz Light 2 ajratishning individual shartlarini nazarda tutuvchi shartnoma tuzish majburiyatini oladi. Ushbu Ommaviy ofertada ko‘rsatilgan harakatlarning bajarilishi Mijozning ushbu Ommaviy ofertada belgilangan shartlarda, tartibda va hajmlarda Shartnomani tuzishga roziligining bildiradi va tasdiqlaydi. Quyida keltirilgan Ommaviy oferta matni “Hamkorbank” ATB bo‘linmalaridan mikroqarz Light 2 olish istagini bildirgan barcha jismoniy shaxslarga – O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 358, 367, 369 va 370-moddalariga muvofiq Shartnoma tuzish bo‘yicha rasmiy ommaviy taklif hisoblanadi.

1. UMUMIY TUSHUNCHALAR

1.1. Bank bo‘linmasi – bankning yuridik shaxs bo‘lmagan, bank nomidan bank faoliyatini amalga oshiruvchi va bank tomonidan o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida harakat qiluvchi alohida bo‘linmasidir;

1.2. Qarz oluvchi – mikroqarz oladigan va olingan summani belgilangan muddatlarda qaytarish va mikroqarzdin foydalanganlik uchun foizlarni to‘lash majburiyatini oladigan jismoniy shaxs;

1.3. Mikroqarz Light 2 (mikroqarz) – bank tomonidan qarz oluvchiga – “Hamkorbank” ATB da identifikatsiyadan o‘tgan jismoniy shaxsga to‘lovlik, muddatlik va qaytarish shartlari asosida shartnomada kelishilgan miqdorda beriladigan pul mablag‘lari.

1.4. Mikroqarz Light 2 ajratishning individual shartlari – ushbu shartnoma asosida tuziladigan alohida bitim. Individual shartlar ssuda miqdorini belgilaydi, shuningdek, tomonlarning mikroqarz Light 2 shartlari va parametrlari sohasidagi munosabatlarini tartibga soladi.

1.5. Qarz yoki kreditning to‘liq qiymati (KTQ) — qarz olish bilan bog‘liq to‘lovlarning haqqoniy, yillik va samarali hisoblashdagi foiz stavkasi hamda to‘liq qiymati. Kreditning to‘liq qiymati qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hisoblanadi. Kredit to‘liq qiymati haqida batafsil ma’lumot mikroqarz Light 2 ajratishning individual shartlarida keltirilgan.

1.6. Mikroqarz Light 2ni qaytarish grafigi – mikroqarz Light 2 ajratishning individual shartlarining tarkibiy qismi bo‘lib, mikroqarz Light 2 bo‘yicha qarz oluvchining barcha kelgusi to‘lovlari aks ettirilgan jadval shakli.

1.7. Aloqa kanali – Qarz oluvchi va Bank o‘rtasida axborot uzatish vositalaridan biri: elektron pochta (e-mail), pochta aloqasi, Internet-banking, mobil banking, masofaviy banking, USSD/SMS-xabar, messenjer xabari, telefon, faks, bankomat, POS-terminal, terminal, Internet-kiosk, Bank tomonidan belgilangan tartibda va shartlarda, Qarz oluvchining ma’lumotlari asosida uni identifikatsiya qilib foydalaniladigan boshqa internet-resurslar.

2. Umumiy qoidalar

2.1. Ushbu ommaviy ofertaga muvofiq mikroqarz Light 2 olishni xohlovchi jismoniy shaxslarga belgilangan muvofiqlik mezonlari, qarz berish muddatlari, boshqa to‘lovlar, shuningdek boshqa shartlar potensial Qarz oluvchilar e’tiboriga tegishli axborotni Bank tanloviga ko‘ra ommaviy joylarda (Bankning Internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida: www.hamkorbank.uz, Internet-bankda, mobil ilovada, ommaviy axborot vositalarida va h.k.) joylashtirish yo‘li bilan yetkaziladi.

2.2. Qarz oluvchi xodim tomonidan taqdim qilingan mikroqarz Light 2 ajratish shartlarini ko‘rib chiqib, tanlagan mikroqarz ajratish shartlarini tasdiqlashi uchun qarz oluvchining telefon raqamiga Bank tomonidan SMS tasdiqnoma yuboriladi. SMS habarnomada mikroqarz Light 2

ajratishning umumiy shartlarini ko'rib chiqish uchun manba taqdim qilinadi. Qarz oluvchi mikroqarz Light 2 ajratishning umumiy shartlarini ko'rib chiqib, umumiy shartlariga rozi bo'lgan taqdirda, telefon raqamiga kelgan SMS kodni ma'lum qilish orqali mikroqarz Light 2 ajratishning umumiy shartlarini akseptlaydi va bir vaqtning o'zida Bankga qarz olish uchun ariza taqdim etadi hamda shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik beradi. Mazkur aksept Bank uchun potensial Qarz oluvchining arizasini ko'rib chiqish uchun asos bo'ladi. Bank tomonidan Qarz oluvchining arizasi ma'qullangan taqdirda, Bank Qarz oluvchiga mikroqarz Light 2 ajratish uchun individual shartlarni taqdim etadi. Mikroqarz Light 2 ajratishning individual shartlariga rozilik ushbu Oferta bilan birga, mikroqarz Light 2 mahsulotini taqdim etish bo'yicha yagona shartnomani shakllantiradi.

2.3. Mikroqarz Light 2 ajratishning individual shartlari Qarz oluvchi tomonidan har bir mikroqarz Light 2 olishdan oldin alohida tarzda belgilanadi. Qarz oluvchi ushbu ommaviy oferta va mikroqarz Light 2 ajratishning individual shartlarining matni bilan tanishish va uni imzolashi bilan mikroqarz Light 2 ajratishning individual shartlarini qabul qiladi va rozilik beradi. Qarz oluvchi tomonidan ushbu ommaviy oferta akseptlangan va mikroqarz Light 2 ajratishning individual shartlari qabul qilinganidan so'ng, Mikroqarz berishning individual shartlari mijoz tomonidan yuqoridagi harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

2.4. Bank qarz oluvchiga kredit ajratish to'g'risida yoki kredit ajratishni asoslantirilgan holda rad etish haqida qabul qilingan qaror to'g'risida bunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay iste'molchini xabardor qiladi.

3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Qarz oluvchining majburiyatlari:

3.1.1. Mikroqarz Light 2 ajratishning individual shartlariga ilova va uning ajralmas qismi hisoblanadigan mikroqarzni qaytarish bo'yicha jadvalda ko'rsatilgan hamda hisoblangan foizlar va asosiy qarzni o'z vaqtida va belgilangan muddatlarda to'lash va/yoki qisman to'lash.

3.1.2. Mikroqarzdin foydalanish jarayonida mikroqarzni asosiy tamoyillari: muddatlilik, qaytarishlilik, to'lovlilik, mikroqarz qaytarilishining ishonchlilikiga rioya qilish.

3.1.3. Qarz oluvchi Bankdan ma'lumot olish uchun Bankka o'zining yashash manzilini, uyali telefon raqamini (yoki raqamlarini), uy telefon raqamini taqdim etishni o'z zimmasiga oladi. Bank tomonidan yuqoridagi manzillar orqali olingan har qanday ma'lumot qonuniy kuchga ega deb baholaniladi.

3.1.4. Yashash joyi, familiya-ismi, uyali va/yoki uy telefon raqami o'zgarganida va mazkur shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa holatlar to'g'risida yozma shaklda yoki Qarz oluvchi uchun maqbul bo'lgan boshqa aloqa kanallari orqali 5 (besh) kun ichida Bankka xabar berish.

3.1.5. Mikroqarz va unga hisoblangan foiz (jarima, penya)lar to'lovini qarz oluvchining shaxsiy bank plastik kartasidan mikroqarzni qaytarish grafigiga asosan to'lovlarni avtomat ravishda ushlab qolinishi uchun bankning avtoto'lov xizmatiga ulash.

3.1.6. Mikroqarz va unga hisoblangan foiz bo'yicha to'lovlarni dam olish va bayram kunlari to'langanda, kredit to'lovlari dam olish va bayram kunlari uchun hisoblangan foizlar bilan birga keyingi birinchi ish kuni uchun hisoblangan foizi bilan birga to'lovni amalga oshiradi.

3.2. Bank majburiyatlari:

3.2.1. Qarz oluvchi nomiga hisob-kitob qilish uchun ssuda hisobvarag'ini ochish;

3.2.2. Qarz oluvchiga mikroqarz Light 2 berishning individual shartlarida belgilangan miqdorda va shartlarda mikroqarz ajratadi;

3.2.3. Qarz oluvchini mikroqarzni muddatidan oldin undirilishining sabablari to'g'risida xabardor qiladi;

3.2.4. Qarz oluvchining huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan kredit berish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida Qarz oluvchiga ishonchli hamda to'liq axborotni taqdim qiladi;

3.2.5. Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchidan majburiyatlari bajarilmasligi sabablari, holati, muddati, summalari, tarkibi haqida so'rash, shuningdek majburiyatlar buzilgani uchun neustoyka (jarima, penya) qo'llanishi natijasida xarajatlar summasi ortishi ehtimoli haqida ogohlantiradi;

3.2.6. Qarz oluvchini ushbu shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzlarni qaytarish bo'yicha majburiyatlari holati, muddatlari, miqdori, tarkibi va bajarilmasligi oqibatlarini to'g'risida xabardor qiladi, Qarz oluvchidan ushbu muddati o'tgan qarzlarning yuzaga kelish sabablarini aniqlaydi;

3.2.7. Agar Qarz oluvchi mikroqarz Light 2 shartnomasi bo'yicha qarzning asosiy summasini to'lash va(yoki) shartnoma foizlarni to'lash muddatlarini buzgan bo'lsa, bank, shartnomada ko'rsatilganidek, qarzdorga nizolarni sudgacha hal qilish to'g'risidagi talabini qo'yadi;

3.2.8. Mikroqarz Light 2 shartnomasi bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, bank qarz oluvchi zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni davomida iste'molchi bilan shartnomada kelishilgan har qanday aloqa bog'lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanib, iste'molchiga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida mikroqarz Light 2ni qaytarish grafigi jadvalini ilova qilgan holda xabardor qiladi;

3.2.9. Shartnomada nazarda tutilgan mikroqarzni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, bu haqda tegishli qaror qabul qilingan sanada shartnomada kelishilgan har qanday aloqa bog'lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanib Qarz oluvchiga xabarnoma yuboradi.

3.2.10. Qarz oluvchi kreditning joriy to'lovi uchun kreditni qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' to'lagan va ushbu mablag'ning ortiqcha qismini kreditning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirilgan taqdirda mijozning yozma murojaatiga asosan kreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirishi va Qarz oluvchiga taqdim etilishi. Bunda, shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvali kuchini yo'qotadi va taraflar uchun yangi qaytarish jadvali majburiy hisoblanadi.

3.2.11. Bank qarz oluvchiga nisbatan majburiyatlarni buzganligi uchun qo'llaniladigan neustoyka (jarima, penya) va ularning natijasida qarz oluvchining xarajatlari summasi oshishi ehtimoli to'g'risida axborot beradi.

4. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Qarz oluvchining huquqlari:

4.1.1. Mikroqarzni belgilangan muddatidan oldin to'lash.

4.1.2. Mikroqarz Light 2 olish bo'yicha Qonunchilik va Bankning ichki qoidalariga kiritilgan o'zgartirishlar haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni olish.

4.1.3. Shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran bir oy ichida mikroqarzdand foydalanmagan taqdirda, Bankni yozma ravishda xabardor etish bilan foydalanilmagan mikroqarzdand voz kechish. Bunda, voz kechish kunigacha Bank tomonidan qilingan xarajatlar Qarz oluvchi zimmasida qoladi. Agar Shartnoma tuzilgandan keyin va mijoz tomonidan pul mablag'lari olingunga (hisob raqamiga kredit mablag'i kelib tushguncha) qadar bo'lgan davr orasida iste'molchining kredit olishdan bepul asosda voz kechish huquqiga ega;

4.1.4. Bankdan majburiyatlarning o'z vaqtida va lozim darajada bajarilishini talab qilish, majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarining o'rnini qoplashni talab qilish;

4.1.5. Shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda majburiyatlarning bajarilishini talab qilish;

4.1.6. O'z huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan ushbu shartnoma asosida mikroqarz olish bilan bog'liq xarajatlar haqida to'liq va ishonchli ma'lumot olish;

4.1.7. Qarz oluvchi mikroqarzni masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda onlayn tarzda to'lash huquqiga ega.

4.1.8. Qarz oluvchi mikroqarzni to'lash usullari va turlarini (differensial yoki annuitet) mustaqil tanlash huquqiga ega.

4.1.9. Qarz mablag'laridan shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanish.

4.2. Bankning huquqlari:

4.2.1. Qarz oluvchi shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran bir oy ichida mikroqarzdin foydalanmagan taqdirda, shartnomani bekor qilish haqida ikkinchi tarafni xabardor etib, mijoz roziligi bilan shartnomani bekor qilish;

4.2.2. Qarz oluvchidan ushbu shartnoma asosida mikroqarz Light 2 ajratish va ushbu shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni (zarur bo'lganda) talab qilish;

4.2.3. Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligiga shubha tug'ilganda, Bank ushbu ma'lumotlarning to'g'riligini ochiq manbalar orqali, daromad manbai va daromad miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni so'rov orqali tekshirishga haqli;

4.2.4. Qarz oluvchi Bank bilan bog'langanda u bilan olib borilgan muzokaralarning ovozlariniqayd qilib borish, shuningdek, Qarz oluvchiga xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilish hamda yaxshilash maqsadida amalga oshirilgan qo'ng'iroqlarni/muzokaralarni biror bir holat vaziyatni tasdiqlash uchun foydalanish;

4.2.5. Qarz oluvchi shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bank o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko'rishga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qarz oluvchining mulki va mulkiy huquqlarini hisobga olib majburiy tartibda undirib olishga haqli;

4.2.6. Qarz oluvchining har qanday joriy va muddati o'tgan majburiyatlarini (qarzlarini) to'lash uchun mablag'larni (qonunchilik hujjatlariga muvofiq undirib bo'lmaydigan pul mablag'lari bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq qarz oluvchining rozilgisiz (akseptsiz tartibda) quyidagicha hisobdan chiqarish/undirib olish/talab qilish:

a) Qarz oluvchining har qanday banklarda va boshqa moliya muassasalaridagi hisobvaraqlariga akseptsiz to'lov talablarini qo'yish;

b) Qarz oluvchining har qanday tijorat banklaridagi va/yoki alohida bank operatsiyalarini amalga oshiruvchi tashkilotlaridagi (bank kartasini) bank hisobvaraqlarini to'g'ridan-to'g'ri debetlash yo'li bilan.

4.2.7. Bank 4.2.5, 4.2.6-bandlarda ko'rsatilgan choralarni qo'llash va/yoki shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlar bajarilmaganligi yoki bajarmaslik xavfi yuzaga kelgan taqdirda ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli, jumladan:

a) agar Qarz oluvchida mikroqarzning keyingi to'lovi uchun mablag' bo'lmasa/yetarli bo'lmasa va ularni olish istiqbollari bo'lmasa;

b) shartnoma tuzish jarayonida yoki kredit operatsiyalarini amalga oshirishda qarz oluvchi tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganligi fakti aniqlanganda;

c) agar Qarz oluvchi sud jarayoniga jalb qilingan bo'lsa va/yoki Qarz oluvchining mol-mulki va/yoki uning hisobvaraqlari xatlangan yoki ularga taqiq qo'yilgan bo'lsa (yoki shunday holatlarning tahdidi mavjud bo'lsa);

d) Qarz oluvchining psixonevrologik dispanserlarga, psixiatriya klinikalariga, giyohvandlik yoki alkogolga qaramlikni davolash klinikalariga joylashtirilganligi to'g'risida ma'lumot olinganda;

e) Bank fikriga ko'ra, Qarz oluvchining to'lov qobiliyatiga va uning shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'g'ri bajarish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa hollarda qarz oluvchining qarz yuki ortib ketishining oldini olish maqsadida;

f) Mikroqarz Light 2ni qaytarish grafigiga ko'ra mikroqarzni to'lash muddati ketma-ket 3 (uch) yoki undan ko'p marta, alohida yoki birdaniga buzilganda (buzilish 3-marta ketma-ket yoki alohida bo'lishi muhim emas);

g) Mikroqarzni o'z vaqtida to'lashga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan obyektiv va subyektiv vaziyatlar yuzaga kelganda.

4.2.8. Mikroqarzning o'z vaqtida qaytarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyat yuzaga kelgan hollarda, Bank xabardor qilish tartibini qo'llaydi, ya'ni mazkur shartnomaianing 9.7-bandida ko'rsatilgan usullardan foydalangan holda Qarz oluvchiga qarzni to'lash bo'yicha yozma da'vo/talabnoma yuboradi.

5. MIKROQARZ BERISH TARTIBI

5.1. Mikroqarz Light 2 milliy valyutada kredit liniyasi ochmagan holda qarz oluvchining bank kartasiga pul o'tkazish yo'li orqali beriladi.

5.2. Mazkur ofertani va mikroqarz Light 2 ajratishning individual shartlarini tasdiqlash bilan birga qarz oluvchi Bankka ssuda hisobvarag'idan mablag'larni o'tkazishga rozilik va ko'rsatma bergan hisoblanadi. Shu bilan birga, mijozning oldindan berilgan ko'rsatmasi asosida ssuda hisobvarag'idagi mablag'lar mijozning mijoz tomonidan ko'rsatilgan/tanlangan Bank kartasiga o'tkazib beriladi.

5.3. Bank ushbu Shartnoma tuzilgan kundan boshlab uch bank kuni ichida mikroqarzni mijozga taqdim etadi.

6. XISOB-KITOB VA TO'LOV TARTIBI

6.1. Mazkur shartnoma asosida berilgan mikroqarzni to'lash mikroqarz Light 2 berish individual shartlarining ajralmas qismi bo'lgan mikroqarzni qaytarish grafigida belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

6.2. Qarz mablag'laridan foydalanganlik uchun foizlar ushbu shartnomada belgilangan nominal stavka bo'yicha, taqdim etilgan haqiqiy mikroqarz qoldig'idan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

6.3. Agar mikroqarzni to'lash sanasi bank ish kuniga to'g'ri kelmasa, to'lov keyingi bank ish kuniga o'tkaziladi, shartnoma tugatilgan sana bundan mustasno.

6.4. Mikroqarz va unga hisoblangan foiz (jarima, penya)larni qaytarish qarz oluvchining istagiga ko'ra, bankning avtoto'lov xizmati, bank kartasi, naqd pul, pul o'tkazish yo'li bilan va qonunchilik hujjatlariga zid kelmaydigan boshqa to'lov usullari bilan amalga oshiriladi. Bunda, kelib tushgan mablag'lar agar mablag' kredit qarzdorligini qaytarish grafigi bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlikni (tani, fozi) qoplash uchun yetarli bo'lsa birinchi navbatda neustoyka, muddati o'tgan qarz foizi, muddati o'tgan qarz tani, muddatli qarz foizi so'ngra muddatli qarz tanini so'ndirishga yo'naltiriladi.

Agar amalga oshirilgan to'lov summasi qarz oluvchiga ajratilgan mikroqarz bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lmasa, qarz oluvchining qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

a) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;

b) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzдорlik;

c) neustoyka(jarima, penya);

kreditorning qarzдорlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

6.5. Foizlar, penyalar va jarimalar miqdori yiliga olingan mikroqarz miqdorining yarmidan ko'p bo'lmasligi zarur.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Qarz oluvchining javobgarligi:

7.1.1. Mikroqarz Light 2ning (muddati o'tgan kredit) to'lovlari kechiktirilgan taqdirda, Bankka butun kechiktirilgan muddat davomida kechiktirilgan to'lovlar uchun mikroqarz Light 2 ajratishning individual shartlarida belgilangan foiz stavkasining 1,5 baravari miqdorida oshirilgan foiz to'laydi.

7.1.2. Mikroqarz Light 2ning asosiy tani o'z vaqtida to'lanmaganda va bu holat bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik shakllanganda, qarz oluvchi bankka kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan qarzдорlikning 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi.

7.1.3. Hisoblangan foizlar o'z vaqtida to'lanmagan bo'lsa va ular bo'yicha muddati o'tgan qarzlarning shakllangan bo'lsa Qarz oluvchi bankka kechiktirilgan har bir kun uchun, muddati o'tgan qarzdorlikning 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi.

7.1.4. Qarz oluvchi bankka soxta va yolg'on ma'lumotlar va hujjatlar taqdim etganligi uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

7.1.5. O'z rekvizitlari (pasport ma'lumotlari) va mobil telefon raqami hamda mazkur shartnomaning 3.1.4 hamda 9.7-banddagi ma'lumotlarning o'zgarganligi to'g'risida ma'lumotlarni o'z vaqtida xabar bermasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar uchun qarz oluvchi javobgar bo'ladi.

7.2. Bankning javobgarligi:

7.2.1. Shartnomada belgilangan summa o'z vaqtida ajratilmagan hollarda, muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

7.2.2. Shartnoma bo'yicha hisoblangan jarima va penyalarni to'lash tomonlarni shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

8. MAXFIYLIK

8.1. Ushbu Shartnomani tuzish va bajarish jarayonida Tomonlar taqdim etgan barcha ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi.

8.2. Tomonlar ushbu shartnomani tuzish va undan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish jarayonida olingan maxfiy ma'lumotlarni, Tomonning tijorat siri hisoblanuvchi ma'lumotlarni boshqa Tomonning yozma roziligrisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar.

Ushbu talab shartnomaning amal qilish muddati davomida va uning amal qilish muddati tugaganidan keyin 3 yil davomida amal qiladi.

8.3. Ushbu talabni bajarmaganlikda aybdor bo'lgan Tomon boshqa Tomonga buning natijasida yetkazilgan zararni to'liq hajmda qoplab beradi.

9. ALOHIDA SHARTLAR, VAKOLAT-KAFOLAT VA XABARNOMALAR

9.1. Mazkur shartnomani imzolash bilan Qarz oluvchi Bankka uning shaxsiga doir ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va undan foydalanishga hamda qarz oluvchi bilan bo'lgan suhbatlarni yozib olinishiga quyidagi hollarda rozilik beradi: Qarz oluvchi manfaatdor bo'lgan shartnomalarni tuzishda va ijrosini ta'minlashda; Qarz oluvchining shartnomada belgilangan huquqlari va majburiyatlarining bajarilishini ta'minlashda, ularning bajarilishini talab qilish va qarzdorlikni undirishda; ma'lumotlarni tekshirish, shu jumladan firibgarlik holatlarini oldini olish maqsadida; Qarz oluvchiga navbatdagi kredit mahsulotlari yoki boshqa bank mahsulotlarini taklif qilish uchun; shartnomaning ijrosini ta'minlash bilan bog'liq ma'lumotlarni Qarz oluvchiga va boshqa uchinchi shaxslarga yetkazishda.

9.2. Ushbu bilan Qarz oluvchi mikroqarz Light 2ni qaytarish grafigi asosida kredit to'lovi bo'yicha telefon qo'ng'iroqlari qilinishiga, SMS-xabarnomalarni uyali telefon raqamlariga, shuningdek Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan boshqa manzillarga (rekvizitlarga), barcha aloqa vositalaridan foydalangan holda yuborilishiga qaytarib bo'lmaydigan, so'zsiz rozilik beradi.

9.3. Ushbu bilan Qarz oluvchi Bankka quyidagi harakatlarni amalga oshirish uchun qaytarib bo'lmaydigan rozilik beradi:

- bank tomonidan Kredit ahborot tahliliy markaziga shartnoma shartlariga doir ma'lumotlarni taqdim etish;
- Qarz oluvchiga, uning vakiliga mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarish yuzasidan Bankka ma'lum bo'lgan manzillarga (rekvizitlarga), telefon raqamlariga qo'ng'iroq qilish, xatlar, elektron pochta xabarlar va SMS xabarlarini yuborish;
- Qarz oluvchi, uning vakili bilan mazkur shartnoma bo'yicha Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish masalalari yuzasidan muzokaralar (uchrashuvlar) o'tkazish;
- Qarz oluvchining ish beruvchilaridan daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni so'rash/tekshirish, mikroqarz bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun Qarz oluvchiga

tegishili mablag'larni (ish haqi, pensiya va boshqalar) yo'naltirish talabi bilan vakolatli shaxslarga murojaat qilish.

Shu bilan birga, Bank tomonidan yuqoridagi harakatlarni amalga oshirishi Bank sirini oshkor qilish hisoblanmaydi.

9.4 Bank tomonidan tasdiqlangan mikroqarz shartlari 30 kun ichida amal qiladi. Lekin, agar mijoz kreditni Bank tomonidan kredit shartlari tasdiqlangan kunning o'zida olmasa, keyingi kunlarda kreditlash dasturi mijozning joriy qarz yuki va qarzдорliklarini tekshirish maqsadida tegishli tizimlarga takroriy so'rov yuboradi.

9.5. Ushbu shartnomadan kelib chiqadigan barcha savollar bo'yicha Qarz oluvchi bank bilan quyidagi aloqa kanallari orqali bog'lanishi mumkin:

a) Call-markaz raqamlari: 08001200200, qisqa raqam 1256 (to'lov mobil operator tarifiga muvofiq olinadi);

b) elektron pochta orqali: info@hamkorbank.uz; muloqot@hamkorbank.uz;

9.6. Bank mazkur shartnoma yuzasidan kelib chiqadigan har qanday savollar yuzasidan qarz oluvchiga quyidagi aloqa kanallari orqali bog'lanishi va ma'lumot yuborishi mumkin:

a) Qarz oluvchining mobil ilova orqali ro'yxatdan o'tgan mobil telefonining raqamiga;

b) Qarz oluvchi tomonidan taqdim qilingan manzillarga;

9.7. Bank tomonidan yuborilgan SMS-xabarlar va/yoki qilingan qo'ng'iroqlar, Qarz oluvchi tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik to'g'risidagi bildirishnomalar qarzni to'lash bo'yicha o'tkazilgan profilaktik chora-tadbirlar hisoblanadi hamda sud va boshqa organlarga asos sifatida taqdim etilishi mumkin.

10. FORS-MAJOR HOLATLARI

10.1. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari — bu tomonlarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan taxdid (uchinchi shaxslar tomonidan qilingan xujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

10.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar.

10.3. Yuzaga kelgan fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida taraf ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtdan boshlab, 3 bank ish kuni ichida bu haqda ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

10.4. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi to'g'risidagi xabarnomalar har qanday mavjud aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

10.5. Fors-major holatlari 30 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda taraflar ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli bo'ladilar.

10.6. Shu bilan birga, Tomonlar koronavirus infeksiyasi (COVID-19) pandemiyasi va (yoki) boshqa har qanday epidemiya yoki kasalliklarning avj olishi, shuningdek, pandemiya munosabati bilan joriy qilingan cheklov choralari (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida karantin joriy etilganida) Shartnomaga muvofiq "Kuch bilan yengib bo'lmaydigan holat" (fors-major) deb e'tirof etilishi mumkin emasligini tushunadilar va rozilik bildiradilar va Tomonlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 333-moddasi 3-qismiga muvofiq, fors-major holatlari qoidalari qo'llanilishini, uning ixtiyoriyligini hisobga olgan holda, istisno qiladilar. Umumiy shartlarning ushbu bandi bunday holatlarni Tomonlar oldindan ko'ra olmasligi va/yoki oqilona choralar bilan oldini ola olmasligi nuqtayi nazaridan davlat organlari Shartnoma bo'yicha Tomonlar o'z majburiyatlarini to'g'ri bajarishlari uchun cheklashlarni belgilovchi harakatlar yoki qarorlar qabul qilgan taqdirda ham qo'llaniladi.

11. KORRUPSIYAGA QARSHI HARAkatLAR

11.1. Tomonlar va ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarish uchun va boshqa tomon qarorlarni qabul qilishida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pul, qimmatbaho buyumlar va xizmatlarni taklif qilishlari, berishlari taqiqlanadi.

11.2. Tomonlar va ularning filiallari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarining bajarilishiga va boshqa tomonning qaroriga ta'sir qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pul, qimmatbaho buyumlar yoki xizmatlarni qabul qilishni rad etishga majburdirlar.

11.3. Agar tomonlar ushbu shartnoma shartlarini bajarish jarayonida korrupsiya hatti-harakatlari to'g'risida ma'lumot, dalillar yoki shubhalarga ega bo'lsa, bu tomon boshqa tomonni bu haqda yozma ravishda xabardor qilishga majburdir.

11.4. Xabar qilingan tomon korrupsion faoliyat amalga oshirilmaganligi tasdiqlanmaguncha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turishga haqli.

11.5. Tomonlar boshqa Tomonning vakili, xodimi va/yoki affillangan shaxslarining arizasi natijasida yetkazilgan zararni pora berish orqali qoplash kabi hatti-harakatlarni amalga oshirganligi uchun javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar.

12. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

12.1. Tomonlar ushbu shartnomani bajarish bilan bog'liq yuzaga kelgan barcha nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qiladilar.

12.2. Agar nizoni o'zaro hal qilishning iloji bo'lmasa, talab yoki ogohlantirish xatini olgan tomon talab yoki ogohlantirish xatida ko'rsatilgan muddatda javob berishi shart.

12.3. Bank Qarz oluvchining qarzi mavjudligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan barcha mumkin bo'lgan aloqa kanallari, shu jumladan, ular bilan cheklanmagan holda: talab yoki ogohlantirish xatini elektron aloqa kanallari orqali yuborish, shaxsan yetkazib berish yoki elektron pochta orqali jo'natish, pochta xizmatidan buyurtma asosidagi/oddiy xat orqali jo'natish hamda mazkur shartnomaning 9.7-bandidagi usullar orqali xabar beradi.

12.4. Tinch yo'l bilan hal qilinmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida hal qilinadi.

13. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI O'ZGARTISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI, SHUNINGDEK SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI

13.1. Mazkur shartnoma (umumiy shartlar) mijoz ushbu shartnoma matni bilan tanishib chiqqan va "Hamkorbank" ATB mobil ilovasida rozilik bergan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi, ya'ni Qarz oluvchi ushbu Umumiy shartlarni qabul qilgandan so'ng ushbu Ofertada nazarda tutilgan shartlar bo'yicha Shartnoma tuzilgan hisoblanadi va agar bu sana O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ish kuni bo'lmasa, undan keyingi ish kuni ushbu shartnoma imzolangan sana hisoblanadi. Mazkur umumiy shartlar mikroqarz Light 2 ajratishning individual shartlariga nisbatan ustunroq kuchga ega hisoblanadi, agar mazkur shartlar bilan mikroqarz Light 2 berishning individual shartlari o'rtasida tafovut (kolliziya) vujudga kelsa taraflar mazkur umumiy shartlarga asosan ish ko'radilar. Bunda mazkur shartnomaning 2.4-bandida nazarda tutilgan holatlarni yuz berishi mazkur shartnomani amal qilishiga ta'sir qilmaydi.

13.2. Ushbu shartnoma tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

13.3. Jismoniy shaxslarga masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma bekor qilingan taqdirda, Bank kredit bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turadi. Mavjud mablag'lar qoldig'i Qarz oluvchining tegishli arizasi asosida boshqa hisob raqamiga o'tkaziladi.

13.4. Bank ushbu shartnoma shartlarini amaldagi qonunchilik doirasida, o'zgarishlar kuchga kirishidan 10 kun oldin o'zgartirishlarni bankning www.hamkorbank.uz saytiga joylashtirishi lozim.

13.5. Ushbu shartnomaning 4.2.7 va 10.5-bandlarida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganda shartnoma muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu Shartnoma

qonunchilik hujjatlariga muvofiq yoki ushbu Shartnoma shartlari asosida bekor qilinganda, Mikroqarz Light 2 ajratishning individual shartlari ham bekor qilingan hisoblanadi.

13.6. Bank mijozni 30 kun oldin xabardor qilgan holda, taklifni bekor qilishi mumkin.

14. HAMKORBANK RYEKVIZITLARI

«Hamkorbank ATB

Manzil: 170119, Andijon sh., Bobur ko‘chasi, 85-uy

«Hamkorbank ATB OPERU

MFO: 00083, STIR: 200 242 936, OKED: 64190

Tel.: 1256 yoki 0 800 1 200 200

Elektron pochta: info@hamkorbank.uz

Ushbu Mikroqarz Light 2 shartnomasini imzolash orqali men matn bilan to‘liq tanishib chiqqanligimni tasdiqlayman va unda nazarda tutilgan barcha shartlarga roziligimni bildiraman.